www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

O'ZBEK XALQ DOSTONLARIDA QO'LLANGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Suvonqulova Laylo – NavDPI o'zbek tili
va adabiyoti ixtisosligi
2-kurs magistrant

Annotatsiya: In this article, we descuss about folklore and its related terms, and words related to the dialect are highlighted.

Tilning lug'at tarkibini, nafaqat boshqa so'zlar, balki barqaror so'z birikmalari ham tashkil qiladi. Barqaror so'z birikmalari boshqa so'zlar bilan ibora tushunchasi vositasi vazifasida xizmat qiladi. Barqaror so'z birikmalari o'zida tobe munosabatda birikkan so'zlarni namoyon etadi. Erkin birikkan so'z birikmasi ma'lum fikrlarni ifodalash uchun har bir ma'lum nutq vaziyatlarining vazifasiga, asosan, tildagi muloqotlar davridagi mazkur tilning grammatik qoidalariga asoslanib yaratiladi. Erkin birikmaning umumiy ma'nosi o'sha birikmani tashkil etgan har bir so'z mazmunidan anglashiladi. Erkin birikma tarkibidagi hokim so'z va gapning mustaqil a'zosi vazifasini bajaradigan tobe so'z kiritilgan. Shunday qilib, erkin birikma o'zida sintaktik bog'lanishni namoyon etadi. Birikmadagi har bir bog'lanishlarning tobelik munosabati birikmaning semantik mustaqilligini anglatadi va ular birlashgan holda turg'un birikmalarni hosil qiladi. Barqaror so'z birikmasi birikma tarkibidagi biror so'zni birikma ma'nosini buzmasdan o'zgartirish mumkin bo'lmagan qat'iy, muayyan so'zlardan tashkil topgan bo'ladi. Barqaror birikma shaklan va muayyan ma'no jihatdan boshqa birikmalardan ajralib turadi, u an'anaviy qo'llanishi va mazmun to'laligining yuqori yoki quyi eknligidan aniqlab olinadi. Turg'un so'z birikmasi nutq paytidagi so'zlashuv jarayonida yaratilmaydi, lekin nutqda allaqachon qotib qolgan va ma'lum mazmunda ishlatilayotgan bo'ladi. Barqaror so'z birikmasining mazmunan to'liq tarkibi gapning mustaqil bo'lagini anglatmaydi, lekin barqaror birikma bir butunlikda gapning bir bo'lagini barpo etadi. Maqol bundan mustasno, chunki uning tuzilishi butun boshli gap bilan teng bo'lishi mumkin.

Frazeologiya til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: tepa sochi tikka bo'ldi, sirkasi suv ko'tarmaydi va hokazo[1]. Ma'lumki, frazeologizm deganda, ko'chma ma'no anglatadigan, ibora yoki turg'un so'z birikmalari tushuniladiFrazeologiya nazariyasiga dastlab fransuz tilshunosi Sh. Balli asos soldi. Frazeologizmlarning grammatik, semantik, funksional-uslubiy jihatlarini rus tilshunoslarining tadqiqotlarida ham ko'rish mumkin. Masalan, V.Vinogradov iboralarni leksik qatlam sifatida ma'no guruhlariga ko'ra tasniflaydi. V.Jukov esa frazeologizmlarning kategorial ma'nolarini aniqlagan. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlar Sh.Rahmatullaev, M.Sodiqova, I.Qo'chqortoev, A.Rafiev, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov, Q.Hakimov, K.Bozorboyev kabi olimlar ishlarida keng o'rganilgan[2]. Mazkur ishlarda frazeologizm masalalari yetarlicha tahlil qilinib, so'zlashuv nutqida faol foydalaniladigan hamda turli badiiy matnlarda qo'llanilgan frazeologik birliklarga doir misollar orqali o'rganilganligi diqqatga sazovor. Ammo shu bilan birga badiiy matnlarda yozuvchi uslubiga oid frazeologik birliklarni o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar juda kamchilikni tashkil etadi. Frazeologizmlar narsa-hodisalar, voqealar, xarakterlarni obrazli-ekspressiv ifodalash ehtiyoji asosida yuzaga keladi. Frazeologizmlarning paydo bo'lishi va shakllanishi

[1] Sayfullayeva.R, Mengliyev.B va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
[2] Rahmatulayev.Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari.-Toshkent,1966. 326-b.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

muayyan tarixiy jarayonlar, ijtimoiy muhit, o‘zbek turmushidagi hayotiy voqelik va undan kelib chiquvchi tasavvurlarni obrazli tarzda aks ettirish bilan aloqador bo‘ladi[3]. Shakllanish davrida frazeologizmlar ham leksika kabi har bir tilning o‘z ichki qonuniyatlariga, fonetik, leksik grammatik talablariga bo‘ysundiriladi. Ular deyarli ko‘chma ma‘noda qo‘llanib, badiiy tasvir vositasida emotsionallik, ekspressivlik xususiyatiga ega bo‘ladi. Shu sababli frazeologizmlar insonlarning faqat ongiga emas, balki, his-tuyg‘ulariga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Barqaror birikmali so‘zlar tilning farzeologik birliklari deb ham yuritiladi. Frazeologik birliklar ikki yoki undan ko‘p so‘zlardan tashkil topadi, u bir tushunchani ifodalashi va bir so‘zga ekvivalent bo‘lishi mumkin. Odatda, u bir so‘zli sinonimik ekvivalentga ega bo‘ladi, sintaktik jihatdan gapning bir bo‘lagini barpo etadi. Tuzilishiga ko‘ra frazeologik birikmalar ulkan xilma-xillikni o‘zida namoyon etadi. Frazeologik birikmalarning tarkibi o‘rtasidagi semantik bog‘lanishlar turlicha bo‘lishi mumkin: bunday birliklar tarkibiga kiruvchi so‘z o‘zining ma’no mustaqilligini yuqori yoki past darajada saqlab qoladi.

XX asr tilshunoslarining eng bahsli mavzularidan biri - bu frazeologik birikmalarning lug‘atdagi o‘rni va bu tilning chegaralari haqida munozaralar yuritishdan iborat edi.

Badiiy matnda, umuman, yozma va og‘zaki matnlarda frazeologizmlar qo‘llanilganda, bu birliklar bir qator funksiyalarni bajaradi. Bu funksiyalarning bir guruhi usual , ya’ni lisoniy xarakterga ega bo‘lsa, qolganlari okkozional, ya’ni nutqiy(uslubiy) funksiyalrdir. Frazeologizmlarning ichki ma’nosi, ichki tabiati har qanday badiiy matnda ro‘yobga chiqadi. Demak, frazeologizmlarning o‘rganilishi, uning chegarasi haqida tilshunoslar hali bir to‘xtamga kelishmagan. Frazeologik birliklarni o‘rganish o‘zbek tilshunosligi oldida yangi imkoniyatlarni ochadi, til lug‘at tarkibining kengayishiga sabab bo‘ladi. O‘zbek tilida frazeologizmlar bir qanchailmiy tadqiqotlarda o‘rganilgan, muhim xulosalar berilgan. Hozirda badiiy asarlar tilida mazkur til birliklarining tadqiqi davom etmoqda.

Frazeologizmlar xalq boyligi bo‘lganligi sababli ham uning manbalari u yoki bu xalqning yashayotgan joyining tabiati, iqtisodiy tuzumi, tarixi, madaniyati, hayot tarzi, og‘zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san’ati, fani, urf-odati kabilar bilan chambarchas bog‘lanadi.

Frazeologizmlarning konnotativ ma’nosida to‘rt xil ma’no nozikligi kuzatish mumkin:

1. Frazeologizmlarda emotsionallik mavjud bo‘lib, ular orqali ijobiy yoki salbiy emotsiyalar o‘zining ifodasini topadi.
2. Frazeologizmlar semantikasida ekspressivlik mavjud bo‘lib, ular orqali fikr tez, kuchli va obrazli ifodalanadi.
3. Frazeologizmlar semantikasida baho-munosabat mavjud bo‘lib, ular orqali voqea- hodisa va jarayonlarga so‘zlovchining ijobiy yoki salbiy munosabatlari ifoda etiladi.
4. Frazeologizmlar stilistik bo‘yoqqa ega bo‘lib, ular ma’lum funksional uslubda va ma’lum stilistik maqsadda ishlatiladi.

Doston leksikasida qo‘llangan frazeologizmlar doston tili uslubiyatini ta’minlashga xizmat qilgan. Doston frazeologizmlarining asosiy qismi qipchoq shevalariga xosdir:

Borishli-kelishli bo‘lmoq — aloqali, munosabatli bo‘lmoq, muomalali bo‘lmoq.

Borishli-kelishli bo‘lib yuradi (A. 26).

Yuqoridagi misolda frazemaning o’zaro aloqa qilish, bir-biridan hol so’rab turish ma’nosi ko’zda tutilgan bo’lib, bu frazema xabardor bo’lmoq, xabar olmoq birikmalari bilan ma’nosi yaqin hisoblanadi.

Boshga urmoq — nima iloj qilmoq, ilojini qanday topmoq.

[3] Mamatov.A. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari. Filol.f. doktr…diss.- Toshkent, 1999. 49-b.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

Bedavlatning boshga urar qiyasi (A. 132).

Bunda ilojini toppish, chora izlash ma'nosi mavjud bo'lib, davlati yo'q kimsa biror bir narsaga iloj topishi qiyinligi ifodalangan.

Boshi gangimoq — es-hushini yo'qotib yo'ldan ozmoq, kalovlanmoq.

Boshi gangib, cho'lda qolgan (A. 121).

Boshidan qorong'i tuman ketmaslik — qayg'uli, noxush voqealarning hayotida ketma-ket bo'layotgani.

Ketmadi boshimdan qorong'i tuman (A. 362).

Qorong'i tuman hayotidan qiyinchiliklar arimayotganligi ma'nosida deb aytdik, bunda boshi g'avg'oda qolgan, bu qiyinchiliklardan boshi gangib qolgan odam ma'nosi anglashiladi.

Boshini qutqarmoq – jonini saqlamoq, og'ir ahvoldan qutqarmoq.

Hali ham qayt, ikki boshdan o'lasan, // Qayt endi, behuda g'arib o'lasan (A. 255).

Boshikasta sho'r bo'lmoq – boshi g'am-tashvishdan chiqmaslik.

Boshikasta sho'rman, qayda boraman (A. 94).

Boshin yerga solmoq – itoat qilmoq, bo'ysunmoq.

Xafa bo'lib boshin yerga solibdi (A. 102).

Botib ketmoq – qattiq tegmoq, og'ir tuyilmoq.

So'zi Alpomishga botib ketadi (A. 142).

Botib ketdi frazemasining o'z ma'nosi ham mavjud bo'lib, yuqoridagi matnda bu frazema tegib ketdi iborasi bilan o'zaro sinonim ham bo'la oladi.

Burungiday bo'lmaslik – qadimgiday, avvalgi holga kelmaslik.

Borsam ham men burungiday bo'lmayman (A. 166).

Chang'arog'i o'yilmoq – xonadonda noxushlik bo'lmoq.

Baxmal uyning chang'arog'i o'yildi (A. 80).

Chatoq qilmoq — og'ir ahvolga solmoq, yomon qilmoq.

Ayol-erkak ko'rsang, chatoq qilasan (A. 91).

Chatoq leksemasining o'zi ham salbiy ma'no beradi, shu sababdan ham bu frazemaga shu so'z salbiy bo'yoqni berishga xizmat qilgan.

Cher ketmoq – qayg'u-alam ketmoq, dard ketmoq.

Boybo'rining yuragidan cher ketar (A. 202).

Keyintortar bo'lmoq – o'zining hatti-harakati bilan hammani uyaltimoq.

Mundayg'acha keyintortar bo'lmagin (A. 251)

Ko'ngli bor — aynan: ko'ngli bo'lmoq.

Balki so'zi ko'ngli borday bo'lgandi (A. 69). *Ko'ngli qabarmoq* – qattiq xafa bo'lmoq, ranjimoq.

Bilgin, Ko'kamanning ko'ngli qabardi (A. 55).

Ko'ngli ravshan bo'lmoq — ko'nglida xafachilik yoki shubha alomati qolmaslik, dili yorishmoq.

Otning ko'ngli ancha ravshan bo'ladi (A. 284).

Ko'ngli shodmon bo'lmoq – biror narsadan mamnun, quvonchga to'la, xursand bo'lmoq.

Beklar ko'ngli shodmon bo'lar (A. 224).

Ko'ngli taskin topmoq – biror gap yoki ish-harakatdan yupanmoq, tasalli olmoq.

Bu so'zni eshitib, Boysarining ko'ngli taskin topib, moli ketsa dam joni qolganday bo'lib... (A. 197).

Ko'ngliga shumlik olmoq — biror yomon shum harakat qilgisi kelmoq.

Qorajonbek shumlik olsa ko'ngliga (A. 132).

Ko'pik sochib o'tirmoq- shiddat bilan, mag'rur yashamoq.

Shu vaqtlarda Hakimbek o'n to'rt yoshga kirgan, mast bo'lgan norday ko'pik sochib o'girgan, necha mahramlar xizmatida turgan (A. 72).

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

Yuqoridagi frazemaga mos ravishda dostonga Hakimbekka nisbatan nom qoldirib o'tmoq, dovrug'i dunyoga taralmoq birikmalari ham bor bo'lib, bu birikmalar ham shu iboraning ma'nosiga yaqin keladi.

Ko'z-ko'z qilmoq – boshqalarni qiziqtirish, havasini keltirish uchun maqtanib ko'rsatmoq.

Qalmoqlarga ko'z-ko'z qilib, shunday ish bo'lib, Qorajon Boychiborni minib, poygachilarga aralashib turibdi (A. 131).

Lof urmoq – ortiq ko'pirtirib, burttirib gapirmoq.

Ular har qaysisi yurur lof urib, // Ahmoq bo'lib, bekor elni kuldirib (A. 102).

Lof urmoq so'zining o'z ma'nosi ham mavjud bo'lib, bu so'z hazil qilmoq, latifa aytmoq ma'nosida ham keladi.

Mahtal bo'lmoq – kutib qolmoq, muntazir bo'lmoq.

Biyning qizi mahtal bo'ldi (A. 86).

Tomir bo'lmoq — qarindosh, quda-qudag'ay bo'lmoq.

Bolam, tomir bo'lsak o'zbek elidan (A.41)

Uyalgan xotindan quruq qoladi – ko'p o'ylash ortiqcha tashvish keltiradi.

Agar mol berganim yo'q deb shul kuni uylanib bormay qolsa, qizini aynib oladi ekan, uyalgan odam xotindan quruq qoladi ekan (A. 49).

Xonazodni olmoq — sovrinni qo'lga kiritmoq.

To'qson alpdan xonazodni olasan (A.104).

Xotindan xarob bo'lmoq — juda lapashang, lattachaynar yigit ekanini ko'rsatmoq.

Ot-yaroq asbob senda bo'lmasa, er yigit xotindan xarob bo'ladi (A. 66).

Yuqoridagi ibora orqali hech qanday ishga yaramaydigan, biror narsani eplab qila olmaydigan obraz ifodalangan. Bu iboraning antoni so'zlari- abjir, epchil

Yo'lga qaramoq – birovni kutmoq, intizor bo'lmoq.

Qirqbesh kunda bu yo'lima qaragin (A.127).

Yo'lga qaramoq frazemasi dostonlarda juda ko'p qo'llangan ibora bolib, yo'lini poylamoq iborasi bilan o'zaro sinonim hisoblanadi.

Yo'ldan urmoq – yomon yo'lga boshlamoq, aynitmoq.

Yo'ldan urma, Chilbir cho'lga borayin (A. 34). *Yo'l bo'lmoq* – safari bexatar bo'ladi, orzulari ushaladi.

Bu beklarning yo'li bo'lar (A. 138). *Yuragini olmoq* – qo'rqitib qo'ymoq.

Buning zarbi yuragimni oladi (A. 166).

Yurak-bag'ri ezilmoq – qayg'u-alamga botmoq.

Ichim kuyib yurak bag'rim ezildi (A. 14).

Yuqoridagi ibora yuragi qonga to'lmoq, dunyo ko'ziga qorong'u ko'rinmoq iboralari bilan sinonimik qatorni hosil qiladi.

Yurt so'ramoq — davlatni idora qilmoq, boshqarmoq.

Qayqubod podsho bo'p yurt so'rab yotdi (A. 286).

Zo'r bo'lsa – hech bo'lmaganda, nari borsa.

Zo'r bo'lsa bir Qorajon kam bo'lar, deb (A. 136).

Til badiiy adabiyotning birinchi elementi, materiali, asosiy qurolidir. Bizning ong-tuyg'umizga ta'sir etib, bizni hayajonga soladigan obraz va manzaralar, lug'aviy birliklar va gaplar yordamida tasvirlanadi. So'z san'atkori badiiy asar tili ustida ishlar ekan, tilda turg'unlik kasb etgan, nutqda keng iste'mol qilinadigan so'z, forma va oborotlarni ishlatadi, o'tkinchi, ikkinchi darajali, til taraqqiyoti uchun xarakterli bo'lmagan elementlarni o'z asarlari tiliga kiritmaslikka harakat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, yozuvchi til boyligidan fikrni eng to'g'ri, aniq va lo'nda qilib ifodalaydigan vositalarni terib, saralab ishlatadi. Shu yo'sinda u tildan foydalanishning, gapirish va yozishning o'ziga xos

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

mezonini, namunasini yaratadi. Yozuvchi yoki so‘zlovchi qanchalik iste’dodli, mehnatsevar bo‘lsa, bu namuna shunchalik hayotiy, jozibador bo‘lib chiqadi. Yozuvchining tilga mana shunday munosabatda bo‘lishi, uning so‘z tanlash san’ati adabiy til va so‘zlashuv uslubi takomilida jiddiy rol o‘ynaydigan omillardan biridir. Shuning uchun yozuvchining adabiy tilni rivojlantirishdagi xizmati to‘g‘risida gapirganda, u yaratgan yangi lug‘aviy birliklar bilangina cheklanib qolmasdan uning nutq ravonligi, sofligi va ta’sirchanligi uchun kurashi to‘g‘risida gapirish lozim. Frazeologik birliklarda birikma a’zolaridan biri o‘z ma’nosini saqlab, ikkinchisi ko‘chma ma’noda qo‘llanadi. Ular dostonda nihoyatda ko‘p ishlatilgan.

Frazeologik qo‘shilmalarning ma’nolari tarkibidagi so‘zlarning yakka holda ifodalagan ma’nolariga nihoyatda yaqin bo‘ladi, ammo butun birikma yaxlit ko‘chma ma’no ifodalaydi. Dostonda bunday birikmalar ancha intensiv qo‘llangan.

Adabiy tilning sofligi va ta’sirchanligini ta’minlovchi vositalardan biri frazeologizmlar bo‘lib, badiiy adabiyot, so‘zlashuv nutqi frazeologizmlari uchun ham asosiy manba hisoblanadi. Badiiy nutq obrazli nutq, obrazli til hisoblanadi, chunki badiiy adabiyotda hayotiy obrazlar, manzaralar yordamida aks ettiriladi. Bizning ong-tuyg‘umizga ta’sir etib, bizni hayajonga soladigan bu obraz va manzaralar so‘z yordamida , so‘zlardan tashkil topgan gaplar yordamida tasvirlanadi.

Frazeologik iboralar zamirida ma’lum obraz, konkret hodisa, predmet tasavvuri yotadi. Bunday obrazlilik iboralarning stilistik imkoniyatlarini oshiradi, ularni tilning kuchli ifoda vositalaridan biriga aylantiradi. Shuning uchun yozuvchilar mazkur birliklar zamiridagi obrazlardan atroflicha foydalanishga harakat qilishadi, ayrim hollarda bu obrazlar yordamida yangi iboralar ham yaratadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alpomish. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti. –T.:Sharq, 2010. –B.420.
2. Sayfullayeva R, Mingliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova.M . Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent. 2009.
3. Rahmatulayev.Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari.-Toshkent,1966.
4. Mamatov.A. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari. Filol.f. doktr…diss.- Toshkent, 1999.